



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MILLIY STILISTIK QATLAMLARNI INGLIZ TILIDA QAYTA KODLASH

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamaxmudovich

Namangan davlat texnika universiteti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqola milliy stilistik qatlam tushunchasini lingvistik va lingvomadaniy nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, uning ingliz tilida qayta kodlanish jarayonidagi xususiyatlari chuqur yoritilgan. Tadqiqotda milliy stilistik qatlam til tizimining faqat funksional komponenti emas, balki milliy mentalitet, kommunikativ an'analar va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Roman Jakobson va Michael Halliday nazariyalariga tayangan holda stilistik differensiyalanishning nazariy asoslari ochib beriladi hamda register modeli orqali stilistik qatlamlarning shakllanish mexanizmi izohlanadi. Shu bilan bir qatorda, o'zbek va ingliz tillarining stilistik tizimlari qiyosiy tahlil qilinib, ular o'rtasidagi tipologik farqlar - ekspressiv vositalar, sintaktik qurilish, leksik tanlov va pragmatik markerlar darajasida aniqlanadi.

Kalit so'zlar: milliy stilistik qatlam, stilistik differensiyalanish, lingvomadaniyat, tarjima nazariyasi, stilistik qayta kodlash, stilistik adekvatlik, funksional ekvivalentlik, pragmatik markerlar, ekspressiv vositalar, madaniy kontekst, lingvistik kompetensiya.

ПЕРЕКОДИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СЛОЁВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Холмирзаев Бахтиёр Мирзамахмудович

Наманганский государственный технический университет, доцент

Аннотация

Данная статья посвящена комплексному анализу понятия национального стилистического слоя с лингвистической и лингвокультурологической точек зрения, а также детальному освещению особенностей его перекодирования на английский язык. В исследовании национальный стилистический слой рассматривается не только как функциональный компонент языковой системы, но и как явление, тесно связанное с национальным менталитетом, коммуникативными традициями и культурными ценностями. Опираясь на теории Roman Jakobson и Michael Halliday, раскрываются теоретические основы стилистической дифференциации, а также объясняется механизм формирования стилистических слоёв через модель регистра. Наряду с этим проводится сравнительный анализ стилистических систем узбекского и английского языков, в ходе которого выявляются типологические различия на уровне экспрессивных средств, синтаксической структуры, лексического выбора и прагматических маркеров.

Ключевые слова: национальный стилистический слой, стилистическая дифференциация, лингвокультура, теория перевода, стилистическое перекодирование, стилистическая адекватность, функциональная эквивалентность, прагматические маркеры, экспрессивные средства, культурный контекст, лингвистическая компетенция.

RECODING NATIONAL STYLISTIC LAYERS INTO ENGLISH

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamaxmudovich

Namangan State Technical University, Associate Professor

Abstract

This article is devoted to a comprehensive analysis of the concept of national stylistic layers from linguistic and linguocultural perspectives, as well as to a detailed examination of the features of their recoding into English. The study interprets the national stylistic layer not only as a functional component of the language system, but also as a phenomenon closely connected with national mentality, communicative traditions, and cultural values. Drawing on the theories of Roman Jakobson and Michael Halliday, the theoretical foundations of stylistic differentiation are outlined, and the mechanism of the formation of stylistic layers is explained through the register model. In addition, a comparative analysis of the stylistic systems of Uzbek and English is conducted, identifying typological differences at the levels of expressive means, syntactic structure, lexical choice, and pragmatic markers.

Keywords: national stylistic layer, stylistic differentiation, linguoculture, translation theory,

stylistic recoding, stylistic adequacy, functional equivalence, pragmatic markers, expressive means, cultural context, linguistic competence.

Globalashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda tillararo va madaniyatlararo kommunikatsiya ko‘lami sezilarli darajada kengaymoqda. Bu esa tarjima faoliyatiga nisbatan yangi talablarni qo‘yib, ayniqsa, stilistik adekvatlik masalasini dolzarb ilmiy muammoga aylantirmoqda. Tarjima endilikda faqat mazmuni bir til tizimidan boshqasiga ko‘chirish emas, balki matnda mujassam bo‘lgan lingvomadaniy xususiyatlar, estetik ta‘sir va kommunikativ niyatni ham qayta yaratishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, milliy stilistik qatlamlarni boshqa tilga, xususan, ingliz tiliga qayta kodlash masalasi zamonaviy tarjimashunoslikning markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Zamonaviy lingvistika va tarjima nazariyasida stilistik differensiyalanish va registr tushunchalari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Roman Jakobson tomonidan ishlab chiqilgan til funksiyalari nazariyasi hamda Michael Hallidayning funksional grammatika modeli stilistik qatlamlarni kommunikativ vaziyat bilan bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar milliy stilistik xususiyatlarni aniqlash va ularni tarjimada qayta ifodalash mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishga xizmat qiladi.

O‘zbek va ingliz tillari turli tipologik va lingvomadaniy asoslarda shakllangan bo‘lib, ularning stilistik tizimlari o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Bu tafovutlar, ayniqsa, ekspressiv vositalar, sintaktik qurilish, leksik tanlov va pragmatik markerlar darajasida namoyon bo‘ladi. Natijada tarjima jarayonida stilistik yo‘qotishlar, deformatsiyalar yoki pragmatik siljishlar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois milliy stilistik qatlamlarni ingliz tilida qayta kodlash masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi milliy stilistik qatlam tushunchasini nazariy jihatdan asoslash, o‘zbek va ingliz tillari misolida ularning tipologik xususiyatlarini aniqlash hamda tarjima jarayonida stilistik adekvatlikni ta‘minlash yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik nazariyasini boyitish bilan birga, amaliy tarjima jarayonida samarali strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. “Milliy stilistik qatlam” tushunchasi til tizimining funksional-stilistik differensiyalanishi doirasida shakllangan bo‘lib, u muayyan millatga xos kommunikativ an‘analar, estetik me‘yorlar va diskursiv modellarning til birliklarida aks etishini anglatadi. Ushbu qatlam tilning faqat leksik yoki grammatik darajasini emas, balki uning ekspressiv, pragmatik va konnotativ imkoniyatlarini ham qamrab oladi. Shu sababli milliy stilistik qatlam lingvistik tizimning ichki komponenti sifatida emas, balki lingvomadaniy hodisa sifatida talqin qilinadi.

G‘arb tilshunosligida stilistik differensiyalanish tilning funksional imkoniyatlari bilan bog‘liq holda izohlanadi. Roman Jakobson til funksiyalarini tahlil qilib, har bir diskurs turida ma‘lum funksionaning ustuvorligini ko‘rsatadi. Bu yondashuvga ko‘ra, stilistik qatlamlar tilning kommunikativ vazifalariga mos ravishda shakllanadi. Masalan, badiiy matnda poetik funksiya ustuvor bo‘lsa, rasmiy matnda referensial va direktiv funksiyalar ustunlik qiladi. Shuningdek, Michael Halliday funksional grammatika doirasida tilni ijtimoiy-semiotik tizim sifatida talqin qilib, stilistik qatlamlarni registr va field (leksik-semantik qatlam), tenor (pragmatik-stilistik bo‘yoqdorlik), mode (strukturaviy-diskursiv shakl) kabi kategoriyalar orqali tushuntiradi. Bu model milliy stilistik qatlamni ijtimoiy kontekst va kommunikativ vaziyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Stilistik qatlamlarni registr modeliga ko‘ra, tilning uslubiy xususiyatlari tasodifiy emas, balki kommunikativ vaziyat parametrlariga bog‘liq holda shakllanadi.

Stilistik qatlamlar — leksik, sintaktik, pragmatik va diskursiv darajalar — aynan shu uch parametrlarning o‘zaro kombinatsiyasi orqali yuzaga chiqadi. Ya‘ni:

- field — leksik-semantik qatlamni belgilaydi;
- tenor — pragmatik-stilistik rangni belgilaydi;
- mode — strukturaviy-diskursiv shaklni belgilaydi.

Natijada har bir kommunikativ vaziyat uchun o‘ziga xos registr shakllanadi va u tilning konkret stilistik qatlamini realizatsiya qiladi.

Milliy stilistik qatlamning asosiy xususiyati uning milliy mentalitet bilan bog‘liqligidir. Har bir xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlari tilning stilistik tizimida aks etadi. Masalan, o‘zbek tilida hurmat kategoriyasi, kinoya, yumor va obrazlilik keng rivojlangan bo‘lib, bu milliy mentalitetning tilga singgan ko‘rinishidir. Bu jihat stilistik qatlamni oddiy funksional uslubdan farqlaydi va uni lingvomadaniy hodisa sifatida talqin qilishga asos bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi asosiy stilistik qatlamlar quyidagicha tizimlashtiriladi:

- rasmiy uslub — normativlik, standartlashgan konstruksiyalar va aniqlik bilan ajralib turadi;
- publitsistik uslub — ideologik yo‘naltirilganlik, baholovchi leksika va persuziv vositalar bilan xarakterlanadi;
- badiiy uslub — obrazlilik, metaforik boylik va estetik ta’sir bilan ajraladi;
- og‘zaki-so‘zlashuv uslubi — spontanlik, emotsionallik va soddalik bilan tavsiflanadi.

Dialektal qatlam esa hududiy xususiyatlarni aks ettiradi va milliy koloritni boyitadi.

Har bir stilistik qatlam o‘ziga xos lingvistik belgilar tizimiga ega: leksik tanlov, sintaktik struktura, intonatsiya va pragmatik markerlar orqali farqlanadi. Shu bilan birga, ular o‘zaro aloqada bo‘lib, real diskursda ko‘pincha aralash holda namoyon bo‘ladi. Milliy stilistik qatlam til tizimining muhim komponenti bo‘lib, u milliy mentalitet, kommunikativ an‘analalar va diskursiv normalar bilan uzviy bog‘liq. Uning tahlili tilning nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy mohiyatini chuqur anglash imkonini beradi.

O‘zbek va ingliz tillari stilistik tizimlari tipologik jihatdan turli lingvomadaniy asoslarda shakllangan bo‘lib, ularning registr tizimi, ekspressiv vositalari, sintaktik qurilishi, leksik tanlovi va pragmatik markerlarida sezilarli tafovutlar kuzatiladi. Ushbu farqlar, ayniqsa, badiiy va ijtimoiy-kommunikativ diskurslarda yaqqol namoyon bo‘ladi va tarjima jarayonida murakkab stilistik muammolarni yuzaga keltiradi.

Ekspressiv vositalar jihatidan o‘zbek tili yuqori darajadagi emotsional va obrazli boylikka ega. Poetik funksiya tilning ekspressiv imkoniyatlarini belgilab beradi. O‘zbek tilida metafora, epitet, takror, parallelizm kabi vositalar keng qo‘llanadi, ingliz tilida esa ekspressivlik ko‘proq kontekst va intonatsiya orqali ifodalanadi. Natijada tarjimada ekspressivlik darajasi ko‘pincha pasayadi yoki qayta kodlashni talab qiladi.

Sintaktik qurilishda ham sezilarli tafovutlar mavjud. O‘zbek tili agglutinativ tuzilishga ega bo‘lib, unda so‘z tartibi nisbatan erkin va ma’no ko‘pincha affikslar orqali ifodalanadi. Ingliz tili esa analitik til bo‘lib, qat’iy so‘z tartibiga ega. Sintaktik strukturalarning universalligi va variativligi til tizimlari o‘rtasidagi chuqur farqlarni ko‘rsatadi. Bu farqlar tarjimada sintaktik restrukturizatsiyani zarur qiladi, ayniqsa, uzun va murakkab o‘zbek gaplarini ingliz tilida soddalashtirish talab etiladi.

Leksik tanlovda o‘zbek tilining milliy-madaniy boyligi va sinonimik kengligi ajralib turadi. Shavkat Rahmatullayev o‘zbek tilining frazeologik va leksik tizimi milliy tafakkur bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Ingliz tilida esa leksik tanlov ko‘proq kontekstual aniqlik va iqtisodiylikka yo‘naltirilgan. Natijada o‘zbek tilidagi ko‘p qatlamli leksik birliklar ingliz tilida qisqartirilgan yoki umumlashtirilgan shaklda ifodalanadi.

Pragmatik markerlar tizimida eng muhim farqlardan biri hurmat kategoriyasidir. O‘zbek tilida “sizlash”, murojaat shakllari, affikslar orqali ijtimoiy masofa va hurmat darajasi aniq ifodalanadi. Albatta, bunday pragmatik markerlar milliy kommunikativ an‘analarning mahsulidir. Ingliz tilida esa hurmat kategoriyasi asosan leksik vositalar va intonatsiya orqali ifodalanadi, bu esa tarjimada muayyan yo‘qotishlarga olib keladi.

Emotsional intensivlik masalasi ham muhim. O‘zbek tilida emotsional kuchaytiruvchi vositalar — takror, kuchaytiruvchi affikslar, obrazli ifodalar keng qo‘llanadi. Darhaqiqat, stilistik vositalarning emotsional funksiyasi matn ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ingliz tilida esa emotsional intensivlik ko‘pincha leksik minimalizm bilan muvozanatlashadi, bu esa tarjimada stilistik intensifikatsiya yoki neytrallashtirish strategiyalarini talab qiladi.

Takroriy konstruksiyalar o‘zbek tilining muhim stilistik xususiyatlaridan biridir. Masalan, “ketdi-ketdi”, “yig‘lab-yig‘lab” kabi konstruksiyalar emotsional va ritmik effekt yaratadi. Ingliz tilida bunday konstruksiyalar kam qo‘llanadi va ko‘pincha boshqa vositalar bilan almashtiriladi. Bizningcha, bunday hollarda stilistik effektini saqlash uchun funksional ekvivalentlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Metaforik boylik jihatidan ham o‘zbek tili yuqori darajada obrazlilikka ega. Metaforalar kognitiv tizimning asosiy elementi bo‘lib, ular odatda madaniy asoslarga ko‘ra hosil bo‘ladi. O‘zbek tilidagi metaforalar ko‘pincha milliy tajriba va an‘analalar bilan bog‘liq bo‘lib, ingliz tilida ularni to‘liq ekvivalentda ifodalash qiyin. Natijada metaforalar yoki izohlanadi, yoki boshqa obraz bilan almashtiriladi.

Bizning fikrimizcha, o‘zbek va ingliz tillari stilistik tizimlari o‘rtasidagi tipologik farqlar ko‘p darajali xarakterga ega bo‘lib, ular registr tizimi, ekspressiv vositalar, sintaktik qurilish, leksik tanlov va pragmatik markerlarda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, hurmat kategoriyasi, emotsional intensivlik, takroriy konstruksiyalar va metaforik boylik kabi xususiyatlar tarjimada maxsus strategiyalarni talab qiladi. Ushbu

farqlarni chuqur tahlil qilish stilistik adekvatlikka erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

O‘zbek matnlarida ifodalangan milliy stilistik qatlamlarni ingliz tiliga qayta kodlash jarayonini aniqlash uchun konkret namunalar asosida qiyosiy tahlil o‘tkazish muhim metod hisoblanadi. Bunday tahlil stilistik vositalarning (metafora, epitet, takror, parallelizm, so‘zlashuv elementlari va boshqalar) qanday transformatsiyaga uchrashini, ularning funksional va estetik ta’siri qay darajada saqlanishini aniqlash imkonini beradi. Zamonaviy tarjimashunoslikda bu jarayon stilistik ekvivalentlik va funksional adekvatlik mezonlari asosida baholanadi.

Avvalo, metaforik birliklar misolida qayta kodlashni ko‘rib chiqamiz. Masalan, o‘zbek badiiy matnida uchraydigan “ko‘ngli muzlab qoldi” ifodasi ingliz tilida “his heart grew cold” tarzida berilishi mumkin. Bu yerda metafora to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent orqali uzatilgan bo‘lib, stilistik effekt yuqori darajada saqlangan. Bizga ma‘lumki, metaforalar kognitiv tizimga asoslangan universal mexanizm bo‘lib, ularni tarjimada qayta yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ayrim hollarda metafora milliy xususiyatga ega bo‘lib, ingliz tilida analog obraz bilan almashtiriladi, bu esa qisman semantik siljishga olib keladi.

Epitetlar tarjimasida ham muhim transformatsiyalar kuzatiladi. Masalan, “oppoq yuzli qiz” ifodasi ingliz tilida “a fair-faced girl” yoki “a girl with a pale face” tarzida beriladi. Birinchi variant stilistik jihatdan ixcham va ekspressiv, ikkinchisi esa tavsifiy va neytral. Bu yerda alohida muhim jihat shundaki, epitetlarni tarjima qilishda semantik va stilistik muvozanatni saqlash zarur bo‘ladi. Demak, stilistik effekt tarjimon tanloviga bog‘liq ravishda o‘zgarishi mumkin.

Takroriy konstruksiyalar o‘zbek tilining muhim stilistik belgilaridan biridir. Masalan, “yig‘lab-yig‘lab gapirdi” ifodasi ingliz tilida “she spoke while crying” yoki “she kept crying as she spoke” tarzida beriladi. Bu yerda takroriylik grammatik yoki leksik vositalar orqali kompensatsiya qilinadi. Bunday hollarda stilistik effektini saqlash uchun kompensatsiya strategiyasini qo‘llash tavsiya etiladi. Natijada asliyadagi ritmik va emotsional intensivlik qisman saqlanadi, biroq shakl o‘zgaradi.

Parallelizm ham o‘zbek badiiy nutqida keng qo‘llanadi. Masalan, “u kuldi, u yig‘ladi, u sukut saqladi” kabi konstruksiya ingliz tilida “he laughed, he cried, he remained silent” tarzida beriladi. Bu yerda parallel sintaktik tuzilma saqlangan va stilistik effekt yuqori darajada tiklangan. Shu sababli bu vosita ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatilishi mumkin.

So‘zlashuv elementlari tarjimasida esa murakkablik yuqori bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “ha endi, nima qilay” iborasi ingliz tilida “well, what can I do” tarzida beriladi. Bu yerda diskursiv markerlar orqali pragmatik ma‘no tiklangan. Biroq ayrim milliy ranglar yo‘qolishi mumkin.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, stilistik effekt uch darajada o‘zgaradi: birinchidan, to‘liq saqlanish (parallelizm kabi universal vositalarda), ikkinchidan, qisman transformatsiya (metafora va epitetlarda), uchinchidan, kompensatsiya yoki neytrallash (takror va so‘zlashuv elementlarida). Har bir holatda tarjimonning strategik tanlovi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbek matnlaridagi stilistik qatlamlarni ingliz tiliga qayta kodlash murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u stilistik vositalarning funksional va estetik xususiyatlarini qayta yaratishga qaratilgan. Qiyosiy tahlil ushbu jarayonning qonuniyatlarini aniqlash va tarjimada stilistik adekvatlikni ta‘minlash imkonini beradi.

Stilistik qayta kodlash jarayoni — milliy stilistik qatlamlarni boshqa til-madaniyat tizimida qayta yaratish jarayoni — ko‘p darajali cheklovlar va muammolar bilan kechadi. Bu muammolar til tizimlarining asimetriyasi, madaniy kontekst farqlari, auditoriya kutishlari hamda tarjimonning individual uslubi va lingvistik kompetensiyasi bilan belgilanadi. Natijada stilistik yo‘qotishlar, deformatsiyalar va pragmatik siljishlar yuzaga keladi. Ularni minimallashtirish esa integrativ strategiyalarni talab qiladi.

Birinchi asosiy omil — til tizimlarining asimetriyasi. O‘zbek tili agglutinatив, ingliz tili esa analitik tuzilishga ega. Bu esa stilistik vositalarning ifodalanish mexanizmlarini farqlaydi. Albatta, tarjima jarayonida ekvivalentlik masalasidan kelib chiqilganda, tillar o‘rtasida to‘liq formal moslik bo‘lmasligi mumkin. Natijada o‘zbek tilidagi takror, affiksial intensivfikatsiya, erkin so‘z tartibi kabi vositalar ingliz tilida boshqa resurslar orqali (leksik kuchaytirish, sintaktik qisqartirish) beriladi. Bu jarayonda shakli yo‘qotishlar yuzaga keladi, ammo funksional adekvatlik saqlanishi mumkin.

Ikkinchi omil — madaniy kontekst farqlari. Albatta, madaniy skriptlar nazariyasida til birliklari ortida madaniy normalar va qadriyatlar yotadi. O‘zbek tilidagi hurmat kategoriyasi, kinoya, yumor yoki marosimiy diskurs ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega emas. Bu esa konnotativ yo‘qotishlarga olib keladi: baholovchi rang, emotsional intensivlik yoki ijtimoiy masofa ko‘rsatkichlari pasayadi yoki o‘zgaradi.

Uchinchi omil — auditoriyaning qabul qilishi. Tarjima matni qabul qiluvchi auditoriya

me'yorlariga mos bo'lishi kerak. Ingliz tilidagi o'quvchi ko'pincha ixcham, aniq va ortiqcha emotsional yuklamadan xoli matnni kutadi. Shu sababli tarjimon stilistik neytrallashga murojaat qiladi, bu esa asliyatdagi ekspressiv qatlamning qisqarishiga olib keladi. Biroq kommunikativ samaradorlik saqlanadi.

To'rtinchi omil — tarjimonning individual uslubi. Tarjimada qaror qabul qilish subyektiv omillar bilan bog'liq bo'ladi, tarjimonning ideologik va estetik qarashlari matn talqiniga ta'sir qilmay qolmaydi. Shu bois bir xil matn turli tarjimonlarda turlicha stilistik yechimlarga ega bo'lishi mumkin. Bu holat stilistik variativlikni oshiradi, ammo ba'zan deformatsiyaga ham olib keladi.

Beshinchi omil — lingvistik va lingvomadaniy kompetensiya darajasi. Tarjimada adekvatlik ko'p darajada tarjimonning til tizimlarini chuqur bilishiga bog'liq bo'ladi. Yetarli kompetensiya bo'lmaganda stilistik xatoliklar — noto'g'ri registr tanlash, ekspressiv vositalarni yo'qotish yoki ortiqcha kuchaytirish yuzaga keladi.

Tahlillarga ko'ra, shuni ayta olamizki, bunday hollarda tarjimada uch turdagi muammo kuzatiladi. Birinchisi — stilistik yo'qotishlar: metaforik boylikning soddalashuvi, takroriy konstruksiyalarning yo'qolishi, emotsional intensivlikning pasayishi. Ikkinchisi — stilistik deformatsiyalar: noto'g'ri registr, konnotativ rangning o'zgarishi, madaniy markerlarning noto'g'ri talqini. Uchinchi turi — pragmatik siljishlar: matnning auditoriyaga ta'siri, ohangi yoki kommunikativ niyati o'zgaradi. Bu yerda diskurs ijtimoiy kontekstga bog'liq bo'lib, bunday siljishlar yangi diskursda ma'noning qayta ishlab chiqilishi natijasida hosil bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, milliy stilistik qatlamlarni ingliz tilida qayta kodlash murakkab, ko'p darajali va kontekstga bog'liq jarayon bo'lib, u funksional, diskursiv va pragmatik qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Samarali strategiyalarni tanlash va qo'llash tarjimonning professional kompetensiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, stilistik adekvatlikka erishish ushbu kompetensiyaning asosiy ko'rsatkichidir. Stilistik adekvatlik mezonlari tarjima sifatini baholashda kompleks yondashuvni talab qiladi. Tarjimaning muvaffaqiyati uning mazmuniy to'g'riligi bilan bir qatorda stilistik mosligi, kommunikativ samaradorligi va o'quvchiga ta'sir darajasi bilan belgilanadi. Taklif etilgan metodik model ushbu mezonlarni tizimli ravishda qo'llash imkonini beradi va tarjimashunoslik amaliyotida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Milliy stilistik qatlamlarni ingliz tilida qayta kodlash bo'yicha olib borilgan tahlillarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayon qat'iy lingvistik qoidalar asosida emas, balki ko'p omilli va kontekstga bog'liq qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Bu qonuniyatlar til tizimlari o'rtasidagi asimmetriya, madaniy tafovutlar, diskursiv normalar va pragmatik maqsadlar bilan belgilanadi. Shu bois stilistik qayta kodlashni "oddiy tarjima" emas, balki semiotik rekonstruksiya sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фёдоров А. В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). – М.: Высшая школа, 1983. – С. 138.
2. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 3–6.
3. Латышев Л. К. *Технология перевода*. – М.: Академия, 2005. – С. 27–34.
4. Маслова В. А. *Лингвокультурология*. – М.: Академия, 2001. – С. 36–41.
5. Nida E. *Toward a Science of Translating*. – Leiden: Brill, 1964. – P. 159–164.
6. Степанов Ю. С. *Константы: словарь русской культуры*. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. – С. 40–45.
7. Salomov G'. *Badiiy tarjimaning leksik-frazeologik masalalari*. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 94.
8. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика*. – Тошкент, 2008. – Б. 320.
9. Телия В. Н. *Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. – М.: Языки русской культуры, 1996. – С. 12–18.
10. Tursunov A. H., Tursunov M. A. *Islomiy atamalar bilan ifodalangan o'lchov birliklarining inglizcha tarjimalarda aks etishi // Komparativistika (Comparative Studies)*. – 2024. – Vol. 1, No. 4. – B. 230–239.